

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Avalboyeva Shahzoda

Sharof Rashidov nomidagi SamDU filologiya fakulteti magistranti

avalboyevashahzoda@gmail.comDOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21903428>

Annotatsiya: Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonining o‘zbek tiliga ta’siri, zamonaviy til taraqqiyotidagi asosiy yo‘nalishlar, yangi so‘z va atamalarning kirib kelishi, axborot texnologiyalari hamda ommaviy kommunikatsiya vositalarining til rivojida o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlash va uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: globalizatsiya, o‘zbek tili, til taraqqiyoti, neologizm, terminologiya, raqamli kommunikatsiya, til siyosati.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на узбекский язык, рассматриваются основные направления развития современного языка, процессы проникновения новых слов и терминов, а также роль информационных технологий и средств массовой коммуникации в развитии языка. Кроме того, освещаются вопросы сохранения национальных особенностей узбекского языка и его развития в соответствии с современными требованиями.

Ключевые слова: глобализация, узбекский язык, развитие языка, неологизм, терминология, цифровая коммуникация, языковая политика.

Abstract: This article examines the impact of globalization on the Uzbek language and analyzes the main trends in its modern development, including the introduction of new words and terms, as well as the role of information technologies and mass communication in language development. It also highlights the issues of preserving the national characteristics of the Uzbek language while promoting its development in accordance with contemporary requirements.

Keywords: globalization, Uzbek language, language development, neologism, terminology, digital communication, language policy.

XXI asrda globallashuv jarayonlari barcha sohalar qatori tillarning rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Dunyo xalqlari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida tillar o‘zaro ta’sirga kirishmoqda. Bunday jarayon o‘zbek tilining lug‘at tarkibi, uslubi imkoniyatlari va qo‘llanish doirasida ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbek tili bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida faol qo‘llanayotgan, ilm-fan, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar sohasida rivojlanib borayotgan tillardan biridir. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida til oldida yangi vazifalar va muammolar ham paydo bo‘lmoqda [1.67].

Globalizatsiyaning asosiy belgilaridan biri turli xalqlar o‘rtasidagi aloqa va axborot almashinuvining tezlashuvidir. Bu jarayon natijasida o‘zbek tiliga ko‘plab yangi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, marketing, biznes va ilm-fan sohalarida ingliz tilidan o‘zlashgan atamalar ko‘paymoqda.

Masalan, “internet”, “marketing”, “brend”, “startap”, “onlayn”, “platforma” kabi terminlar kundalik nutqda faol ishlatilmoqda. Bunday o‘zlashmalar tilning lug‘at boyligini oshiradi, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini kengaytiradi. Biroq o‘zlashma so‘zlardan foydalanishda ularning o‘zbek tili me’yorlariga moslashuvi va maqsadga muvofiq qo‘llanishiga e’tibor berish zarur.

Hozirgi davr o‘zbek tili leksikasida kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan biri – neologizmlarning ko‘payishidir. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida yangi tushunchalar paydo bo‘lmoqda va ular til vositasida ifodalanmoqda.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar tilning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet muloqoti natijasida qisqartmalar, yangi iboralar, aralash til birliklari keng tarqalmoqda. Yoshlar nutqida kuzatilayotgan bunday holatlar tilshunoslikda yangi tadqiqot yo‘nalishlarini yuzaga keltirmoqda.

Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida mashhur olim Edvard Sapir shunday ta’kidlaydi: “Til madaniyatni ifodalovchi eng muhim vositalardan biridir.” Darhaqiqat, har bir xalqning tili uning madaniyati, an’analari va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli globalizatsiya jarayonida milliy tillarni saqlash va rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi [3:74].

XX asrda o‘zbek xalqining yagona milliy tili har tomonlama o‘sdi va yuksaldi, uning fonetik tizimiga ma’lum darajada o‘zgarishlar kiritildi – unlilar tarkibi ixchamlashdi, undoshlar tarkibiga ba’zi bir yangi fonemalar kelib qo‘shildi, tilning lug‘at tarkibi yangi so‘z va iboralar hisobiga boyidi, so‘z ma’nolari kengaydi, eskirib qolgan so‘zlar iste’moldan chiqib ketdi, o‘zbek tilining grammatik qurilishi takomillashdi[2. P. 101].

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi o‘zbek tilining elektron makondagi imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Elektron lug‘atlar, onlayn tarjima tizimlari, matn tahlili dasturlari va til korpuslarini yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. O‘zbek tilining raqamli resurslarini rivojlantirish nafaqat tilni saqlash, balki uni xalqaro axborot maydonida yanada faol qo‘llash imkonini beradi. Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishidagi tadqiqotlar kelajakda o‘zbek tilining texnologik imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunos olimi A. Nurmonov tilning milliy taraqqiyotdagi ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi: “Til millatning tarixiy xotirasi va madaniy merosini saqlovchi muhim omildir.” Shu bois globalizatsiya sharoitida milliy tillarni rivojlantirish, ularning ilm-fan, ta’lim va axborot sohalaridagi qo‘llanishini kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi[1:204].

O‘zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlash masalasi Globallashuv sharoitida tillar o‘rtasidagi aloqalar kuchaygani sari milliy tilning o‘ziga xosligini saqlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Shuning uchun zamonaviy taraqqiyot talablarini hisobga olgan holda yangi terminlarni yaratish, o‘zbek tilining ilmiy uslubini rivojlantirish va adabiy til me’yorlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Globalizatsiya sharoitida o‘zbek tili doimiy rivojlanish va yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Yangi so‘zlarning kirib kelishi, raqamli texnologiyalar ta’siri va xalqaro aloqalarning kengayishi til taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Shu bilan birga, globallashuv jarayonida o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini asrash, uni ilm-fan va texnologiya tili sifatida rivojlantirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘zbek tilining kelajakdagi taraqqiyoti zamonaviy jarayonlarga moslashish va milliy til qadriyatlarini uyg‘unlashtirishga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нурмонов А. Тилшунослик назарияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 2012. –256 б.
2. Швейцер А.Д. Современная социолингвистика. М.: ИМО, 1998. –С. 230.
3. Crystal D. Language and Globalization. –Cambridge: Cambridge University Press, 2003. –224 p.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
5. “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Jo‘rayev M. Til va milliy ong. – Toshkent: Fan, 2015.
8. Nurmonov A. Til siyosati va jamiyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
9. UNESCO. Languages in a Globalized World. – Paris, 2018.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat tilini rivojlantirish dasturi 2020–2030. – Toshkent, 2020.